International

scientific and practical conference

DECEMBER 6
2024

2024



STDF

Science technology& Digital finance

Google Scholar

The main directions of socio-economic development of New Uzbekistan: problems and solutions

MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

JIZZAKH BRANCH OF THE NATIONAL UNIVERSITY OF UZBEKISTAN NAMED AFTER MIRZO ULUGBEK

Scientific journal of Science technology & Digital finance

The main directions of socio-economic development of New Uzbekistan: problems and solutions collection of materials of the international scientific and practical conference on the topic

(December 6, 2024)

(Part 2)

Jizzakh-2024

Department of Economics and tourism of Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
6.12.2024

The main directions of socio-economic development of New Uzbekistan: problems and solutions collection of materials of the international scientific and practical conference on the topic – Jizzahk: Department of economics and tourism of Jizzakh branch of the national university of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, December 6, 2024, 450 pp.

Editors in charge: DSc.prof. Turakulov O.X., PhD. O'ralov A.I.

In the collection of materials of the conference, the role and role of Science, Education and production in the era of globalization, the pressing problems of the issues of interaction of these processes, feedback on their solutions were presented by mature specialists of the field.

In addition, research on the scientific and practical topic, carried out in the economics, Exact Sciences, Natural Sciences and socio-humanities during the globalization period, information is presented in the scientific and practical fields, which includes the latest innovative technologies in the fields of production.

It can be argued that this collection is one of the specific intersections of current thoughts and innovative ideas of the world of science. This scientific and practical conference was actively attended by professors and scientific researchers engaged in scientific research in Uzbekistan and foreign countries. In increasing the position of the scientific and practical conference, the professors and teachers of domestic and foreign higher educational institutions made a significant contribution.

Professors and teachers of foreign higher educational institutions who actively participated in the work of the conference made a worthy contribution to the high level of interaction with scientists of our country. The processes of international cooperation with foreign countries and exchange with them in the field of Science in the era of globalization have a positive effect on the development of Higher Education, the fields of Science and production. The materials of this conference are special in that they include a wide range of research, from theoretical developments to practical solutions, demonstrating the diversity of approaches and directions in this area.

In conclusion, it should be noted that this scientific and practical conference will be a very useful collection for everyone who is interested in modern research in the fields of further development of Higher Education, Science, Education and production in the era of globalization. The authors are responsible for the content and quality of the articles and abstracts included in the collection.

KO‘P O‘LCHAMLI KAMBAG‘ALLIKNI ANIQLASH USULI, MUAMMOLARI VA AFZALLIKLAR



Axmedov Qosimxo‘ja Xasan o‘g‘li
O‘zbekiston Milliy Universiteti Iqtisodiyot fakulteti 4-kurs talabasi,
ahmedovqosim123@gmail.com

Kambag‘allik nima? Uning sabablari nimada? Inson kambag‘al deb tan olinishi uchun qanday talablar mavjud? Kambag‘allikni aniqlashda qanday yondashuvni amalga oshirish kerak va qaysi biri samaraliroq bo‘ladi? Ushbu savollarga turli xil yirik tashkilotlar turlicha ta’rif va yechim berganidek, odamlarning kambag‘allik to‘g‘risidagi fikrlari ham turlichadir. Ba’zilar aytishi mumkin, kambag‘allik-bu to‘yib ovqatlanmaslik, yana boshqalar kiyim-kechagi bo‘lmagan insonlar kambag‘al deyishi mumkin. Fikrlar turlichadir, ammo bularning qaysi biri haqiqatga yaqinroq degan savol tug‘iladi. Besh kishidan kambag‘allik nima degan tadqiqot o‘tkazib shuni bildimki, deyarli barcha kishi to‘yib ovqatlanmaslik degan javobni berishdi. Ha bu ham to‘g‘ri javob bo‘lishi mumkin ammo juda sodda va tor ma’noli bo‘lib kambag‘allik haqida to‘liq ma’lumot berolmaydi.

Aslida kambag‘allik insonning hayoti davomida o‘zi xohlagan tanlovni qilolmasligi, jamiyatda to‘laqonli ishtirok etish uchun turli xil to‘siqlarning mavjudligi, bundan tashqari, oilasini oziq-ovqat bilan ta’minlashi va kiyintirishi, o‘zi va oilasni ta’lim olishi yoki kasalxonada davolanishi uchun imkoniyatlarning yo‘qligi, daromad olishga imkon beradigan mehnat bilan ta’minlash imkoniyatlari cheklanganligi yoki umuman yo‘qligi bilan izohlanadi. [1]

Mana kambag‘allik tushunchasi haqida to‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lib oldik. Endi kambag‘allikni yuzaga kelishiga olib keluvchi sabablar haqida gaplashib o‘tsak, eng birinchi kambag‘allikka olib keluvchi sabab daromadlarning notekisligi ya’ni daromadlar yetishmovchiligidir. Ushbu holat insonlarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini ham tushirib yuboradi. Bundan tashqari yana bir qancha sabablar mavjud. Xususan, geografik omillar, geosiyosiy vaziyatlar, ishsizlikning yuqori sur’ati, ta’lim tizimining sifati hamda shahar va qishloq ta’limi o‘rtasidagi tafovutlar, gender tengsizligi, sog‘liqni saqlash tiziminig sifatsizligi, bundan tashqari aholining qarzi ham kambag‘allikka olib keladi. Bularning barchasi bir-biriga chambarchas bog‘liq bo‘lib, bittasida oqsash bo‘lsa qoganlariga ham ta’sir qiladi va kambag‘allikka yo‘l ochiladi.

Bugungi kunda jahonda kambag‘allikni aniqlashning bir qancha turlari mavjud. Bular mutlaq kambag‘allik, nisbiy kambag‘allik hamda so‘rovnoma orqali aniqlanuvchi kambag‘allik. [2]

Jahon amaliyotida kambag‘allikni aniqlashning bir qancha usullari mavjud. Bularning barchasini birma-bir ko‘rib, ularning afzallik va kamchiliklari haqida

Department of Economics and tourism of Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
6.12.2024

ko‘rib chiqamiz hamda bu usullarning qaysi birini O‘zbekistonga qo‘llasak samarali bo‘lishi haqida gaplashamiz.

Birinchi usul bu Jahon banki metodologiyasi bo‘lib, daromadga asoslangan yondashuv hisoblanadi. Bunda biror-bir shaxs yoki oilaning daromadi Jahon banki tomonidan belgilangan daromad chegarasidan past bo‘lsa ushbu shaxs yoki oila kambag‘al hisoblanadi. Bu miqdor ya’ni xarid qobiliyati pariteti bo’yicha 2.15$ni tashkil etadi. Bugungi kunda qariyb 700 million kishi (dunyo aholisining 8,5 foizi) o'ta qashshoqlikda - kuniga 2,15 dollardan kam daromad bilan yashaydi. [3]

Ushbu yondashuvning bir qancha afzalligi mavjud. Birinchidan ushbu usul oddiy bo‘lib kambag‘allik darajasini aniqlash oson. Bundan tashqari, global miqiyosda davlatlar o‘rtasida kambag‘allikni solishtirishda qo‘l keladi. Yana bu usul qisqa muddatli kambag‘allikni aniqlashda qulay usul, sababi daromadlar har doim ham bir xilda bo‘lavermaydi. Daromad va xarajatlar usulini tahlil qilish oson sababi ma’lumotlarni to‘plash osonroq va kam vaqt va kam harajat talab qiladi.

Har bir narsaning ijobiy tomoni bo‘lganidek uning kamchiligi, zaif tomoni ham mavjud. Xususan ushbu usul davlatning faqat iqtisodiy tomonini ko‘rib chiqadi. Vaholangki davlatning barqarorligi va farovonligi faqatgina iqtisodiy holatga qarab baholanmaydi, balki ijtimoiy holati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu uslubda u holatga e’tibor qaratilmagan.

Ikkinchidan, ushbu uslub soliq tizimi bilan chambarchars bog‘liq. Sababi aholi daromadlari haqidagi ma’lumotlar soliq tizimi orqali olinadi. Soliq tizimi esa barcha davlatlarda ham bir xil rivojlanmagan. Bu esa, o‘z navbatida butun aholini qamrab olishda ma’lum qiyinchiliklarga olib keladi va statistika to‘g‘ri chiqmaydi. Bu uslub rivojlangan mamlakatlarda samarali amal qiladi.

Uchinchidan, O‘zbekistonda aholining daromadlari yuqori emasligi. Misol uchun bir oilada yetti nafar a’zo bo‘lsa va ulardan bir dona erkak ikki million so‘m oylik olsa, uni qanday hisoblash mumkin. Ya’ni ikki million so‘mni yettiga bo‘ladigan bo‘lsak maksimum 286 ming so‘mdan to‘g‘ri keladi. Mamlakatda kambag‘allik chegarasi 2.15$ni tashkil qilsa, bu so‘mda 27520 so‘mni tashkil qiladi. Buni 30 kunga ko‘paytirsak, 825600 so‘m chiqyapti. Demak, ushbu oilaning barcha a’zosi kambag‘almi, yoki birgina erkak kambag‘al hisoblanmay, qolgan a’zolar kambag‘al bo‘ladimi? Mana bu ham asosiy muammolardan biri va ushbu holat statistikani buzilishiga olib keladi hamda mamlakatda kambag‘allikni aniqlashda qiyinchilik tug‘diradi.

Bugungi kunda, O‘zbekistonda kambag‘allikni aniqlashda MIHdan foydalanib kelinmoqda. Ammo, bu amaliyotda unchalik samara bermaydi. Sababi O‘zbekiston rivojlanayotgan mamlakatlar safiga kiradi. Soliq tizimi to‘liq rivojlanmagan. Aholi o‘rtasida soliqdan qochish holatlari juda ko‘p va yashirin ishsizlikning salmog‘i katta. Bu o‘z navbatida barcha aholini qamrab olish imkonsizligini ko‘rsatib beradi. Shuning uchun bu usul O‘zbekistonda samarali amal qilmaydi deb o‘ylayman.

Kambag‘allikni aniqlashning ikkinchi usuli, iste’mol savati usuli deb nomlanadi. Bu uslubda iste’mol savatiga insonning asosiy ehtiyojini qondirish

Department of Economics and tourism of Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
6.12.2024

uchun kerak bo‘lgan tovar va xizmatlarning minimal miqdori kiritilgan bo‘ladi. Bu savatda taxminan 70% oziq-ovqat mahsulotlari va 30% nooziq-ovqat mahsulotlari kiritiladi.

Ushbu uslub ham oddiy va qulay, ko‘p vaqt talab qilmaydigan hamda kam xarajatli usul hisoblanadi. Bundan tashqari ushbu usulda har bir oila har bir shaxs uchun kerak bo‘lgan minimal oziq-ovqat va xizmatlarning miqdorini aniqlash mumkin. Yana bir ijobiy tomoni mintaqalar o‘rtasida narxlarni solishtirish imkonini beradi. Masalan, Toshkent va Buxorodagi narxlar tafovutini ko‘rish mumkin. Bu usul minimal ish haqi va pensiyalarni belgilash imkonini ham beradi.

Bu usulning ham bir qancha salbiy tomonlari bor va bu salbiy jihatlar O‘zbekistonga to‘liq joriy etilishiga to‘sqinlik qiladi va samarasi kamroq hamda statistikada noaniqliklarga olib keladi.

Birinchidan, bu uslub umumlashtirilgan bo‘ladi ya’ni shahar aholisi bilan qishloq aholisi bo‘yicha narxlar hamda iste’mol savati bir xil bo‘ladi. Afsuski shahar hamda qishloq joylaridagi narxlar bir-biridan farq qiladi. Masalan, Toshkentdagi narxlar yuqori va iste’mol savati ham shunga moslashtirilgan bo‘lsa qishloq aholisining mablag‘i ushbu savat miqdoriga yetmasa kambag‘al deb hisoblanadimi? Unda kambag‘allar soni oshib ketishi kerak.

Ikkinchidan, qishloq aholisining ko‘p qismi o‘z tomorqasidan foydalanishi va o‘z ehtiyojini qondirishi mumkin. Iste’mol savati esa bozor xarjatlariga asoslanadi. Demak ehtiyojini boshqa yo‘l bilan qondirayotgan aholi guruhi kambag‘al hisoblanadimi?

Uchinchidan, bu usulda ham faqat aholining iqtisodiy ahvoli inobatga olingan. Lekin farovonlikka erishishda bu kamlik qiladi. Mana shuning uchun ham bu usulni afzal bilmadim.

Kambag‘allikni aniqlashning keyingi usuli bu-ko‘p o‘lchovli kambag‘allik deyiladi. Ushbu uslubda nafaqat aholining daromadi balki sog‘liqni saqlash, ta’lim va shuningdek elektr energiya, suv bilan ta’minlanganlik va yana boshqa tizimlar birlashtirilib kambag‘allik aniqlanadi.

Bu usulning afzalliklari shundan iboratki, bunda kambag‘llikni aniqlashda faqatgina aholining iqtisodiy holatini emas, balki ijtimoiy hamda ma’naviy tomoni ham inobatga olinadi. Bundan tashqari bu uslubda moslashuvchanlik namoyon bo‘ladi, ya’ni har bir mintaqa o‘z hususiyatlaridan kelib chiqib yo‘l tanlaydi. Masalan shahar joylarda uy-joy, ta’lim muhimroq sanalsa qishloq joylarda sanitariya hamda toza suv ta’minoti muhimroq bo‘lishi mumkin. Shunga qarab resurslar o‘sha sohaga yo‘naltiriladi.

Ha albatta bu usulda ham kamchiliklar mavjud. Misol uchun ko‘plab Afrika davlatlarida suvga bo‘lgan ehtiyoj yuqori. Bunda afrikaliklarning hammasini kambag‘al deyish qanchalik to‘g‘ri? Yana bir misol, YUNESCO O‘zbekistonda savodlilik darajasi 99,99%ga yetganini ma’lum qildi. [4] Demak, O‘zbekistonda kambag‘al inson yo‘qmi? Mana shunday kamchiliklar mavjud bu usulda. Bundan tashqari ushbu usul murakkab bo‘lib ko‘plab indikatorlarni birlashtiradi. Bu esa ko‘p

Department of Economics and tourism of Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
6.12.2024

vaqt va xarajat talab qiladi. Agarda biror-bir indikatorda ma’lumot yetarli bo‘lmasa statistika butunlay o‘zgarib ketishi mumkin.

Yuqoridagi uch uslubda ham ma’lum afzallik va kamchiliklar mavjud. Shularni o‘rgangan holda ushbu hulosaga keldim, ya’ni ko‘p o‘lchovli kambag‘allik usuli O‘zbekistonga mos keladi, nafaqat O‘zbekistonga balki butun dunyo uchun qulay usul deb o‘ylayman. Birgina misol bilan tushuntirib beraman. Siz basketbo‘l to‘pini savatga tushirishingiz kerak. Bitta inson sizga savatga tashlash uchun bitta imkoniyat bermoqda va uning narxi 10 ming so‘m. Agar tushirsangiz sizga mukofot sifatida 500 ming so‘m pul bermoqchi. Ikkinchi xuddi shunday odam 3ta imkoniyat bermoqda. Uning narxi esa 15ming so‘m. Tushirsangiz xuddi shu miqdorda mukofot bermoqchi. Siz qaysi yo‘lni tanlagan bo‘lardinigz? Menimcha ko‘pchilik qism 3ta imkoniyatni tanlagan bo‘lardi. Ha bu yo‘l ozgina xarajat talab qilishi mumkin lekin, maqsadizga yetish uchun imkoniyat darajangiz katta bo’ladi. Huddi shunday ko‘p o‘lchovli kambag‘allik usulida ham turli xil yo‘llar bilan kambag‘allikni aniqlash samaraliroq bo‘ladi deb o‘ylayman.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. https://kun.uz/news/2021/01/02/kambagallik-va-qashshoqlik-ortasida-qanday-farq-mavjud
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Qashshoqlik
3. https://www.worldbank.org/en/publication/poverty-prosperity-and-planet
4. https://uzreport.news/economy/yunesko-o-zbekistonda-savodxonlik-darajasi-99-99-foizga-yetganini-ma-lum-qildi

Department of Economics and tourism of Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
6.12.2024